



ONA-TILIM SEN RUHIMNING QANOTISAN



**SAPARNIYOZOVA DIYORA
SHODURDIYEVNA**

*Termiz davlat pedagogika
instituti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

[https://doi.org/10.47689/STARS.
university-pp222-225](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp222-225)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining nafis, jozibadorligi, xalqimiz uchun uning tarixiy ahamiyati, o'zbek tilini yuqori cho'qqiga ko'targan she'riyat sultoni A. Navoiyning tilimiz boyishiga qo'shgan benazir hissasi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bugungi kunda ona tilimizning birligi va rivojlanishi yo'lidagi ba'zi bir muammolar va ularning yechimi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy til, tarix, A. Navoiy, Ozod Sharofiddinov, huquq, nafis, rivojlanish, Islom Karimov, Ismoilbek Gaspirali, ma'rifat-ma'naviyat.

O'zbek tili – bu o'zbek xalqining azaliy va umumiy bitmas-tuganmas bebaho boyligidir. U ming yillar davomida ota-bobolarimizdan tarixan meros bo'lib, vatandoshlarimizning qon-qoniga, qalb qo'riga singib ketgan, o'zligini belgilab beradigan oltin yanglig' zanglamas tildir. Ona tilimiz o'zbek millatininguzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi taraqqiyotga qadar shonli va sharaflı yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilmoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayoni ham osonlikcha ro'y bergani yo'q. XX asrning 80-yillarida boshlangan urinishlar natijasi o'laroq, 1988-yilga kelib qator olimlarimiz tilimiz haq-huquqini tiklash yo'lidagi dadil fikrlari bilan matbuotda chiqish qildilar. Nihoyat, 1989-yil 21-oktabrda XI chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1995-yil 21-dekabrda qayta tahrir qilingan mazkur tarixiy qonun 24 moddadan iborat bo'lib, mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati jihatidan dolzarbdir. Qarangki, bugun o'sha kunga sakkiz yil emas, o'n yil emas, o'ttiz uch yil to'libdi. Shu davr ichida ona tilimizga bo'lgan munosabat qanchalik yaxshi tomonga o'zgarganini o'ylasak, yurtimizdagi mustaqillik tuyg'usi xalqimiz ruhiyatini ko'targanligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Mustabid tuzum zamonida xalqimiz aytmog'chi bo'lgan gaplarni rus tilida ifodalay olmay qanchalik qiynalgani bizga sir emas. Istiqlo'l arafasida tilimizga davlat maqomi berilganida, chin ma'noda, erkinlik gashtini yurakdan his qildik. Qonunning 2-moddasining "O'zbek tili o'zbek

xalqining ma'naviy mulkidir", – deya mustahkamlab qo'yilishi keng jamoatchilikning g'ururiga g'urur qo'shdi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyin 27 yil o'tib, yana bir tarixiy voqea ro'y berdi. 2016-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti uni versiteti tashkil etildi. O'zbek tili va adabiyotining haqiqiy tabiatini o'rganish, unga rivojlanish yo'lini ochish bilan mashg'ul oliy o'quv yurtini Navoiydan boshqa yana kimning nomi bilan atash mumkin. She'r va tafakkurning buyuk sohibqironi Alisher Navoiy o'zida tug'ilgan har bir fikrni nazm bilan ifoda qilardi. Eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida shoirning xizmatlari beqiyosdir. U "Chor devon", "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlari bilan eski o'zbek adabiy tilini yuqori pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'z badiiy asarlari bilan o'zbek adabiy tilining imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, ilmiy asarlari orqali o'zbek tilining boyligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Navoiygacha o'zbek va, umuman, turk xalqlari adabiyoti Eron adabiyotining ta'siri ostida edi. Hamma shoirlar deyarli fors tilida yozar edilar. O'zbek tilida yozish ayb sanalar, asarlarini saroy ahllari tan olmas edilar. Navoiy shunday bir sharoitda "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli mashhur asarni yozib, o'sha davrda turk tili deb atalagan qadimgi o'zbek tilining fors tilidan ham boy, rang-barang ekanligini isbot qiladi va o'z asarlarini o'zbek tilida bitadi. Shuning uchun Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi deymiz. Navoiy: "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz", – deganida kishi o'z tilini sevmasa, unga e'tibor bermay, o'zga tilda so'zlashsa, nafaqat tiliga, balki o'z ona xalqiga va Vataniga nisbatan e'tiborsizligini ifodalaydi, degan ma'noni ilgari suradi.

Yangi o'zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmidan rivojlanib, bu vaqtga kelib, Furqat, Zavqiy kabilarning tili jonli tilga yaqinlashdi. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa XX asr 20-yillaridan shakllana boshladi. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Komil Yashin, Zulfiya asarlari hozirgi adabiy tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixi, eng muhimi, mustaqillik belgisidir. Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'рни va nufuzi tobora oshib bormoqda. Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarining namunasi. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofiga birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson Vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi. Jamiki ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Turk dunyosining buyuk ma'rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: "Millatning ikki asosi bordir. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutar". Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasi, tuganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy-ma'naviy merosi, urf-odatlar va an'analari unda mujassam bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ta'biri bilan aytganda: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar va ajdodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali vujudga keladi".

Dunyoda mavjud tillardan faqat 200 tasigina Davlat tili sifatida qabul qilingan. Ular orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olimi, professor A.M. Kozlyanina: "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador", – deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan, ona tilimizning shunday go'zalligini, sofligini keyingi avlodlariga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki ona tilimizni ulug'lash, asrab-avaylash, o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir. Ona tilimizga bo'lgan e'tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda atoqli olim O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratsak: "O'zbek tili nafaqat qadimiy til, u g'oyat nafoosatga boy til, u har qanday ma'noni eng inja qatlamlarigacha ochib bera oladigan, o'zining go'zalligi bilan odamga zavq-shavq ulasha oladigan, bahri dili ochib qondira oladigan tildir". Haqiqatan ham, ona tilimiz bu kurrayi zamin osmonidagi porlab turgan quyosh yangling' ko'ngillarni maftun etgay. Chunonchi, xalqning, millatning o'zligini anglashi, tarixini namoyon qilishida o'z "oliy zaboni" bo'lmish ona tilining o'rni beqiyosdir. O'zligini qadrlagan, o'z millatiga daxldorligini his qilgan, milliy g'urur va iftixorini yuqori tutgan har bir fuqaro o'z ona tilida sof va samimiy so'zlashadi. Tajribadan ayonki, ko'p til bilish- rivojlanishning ilg'or qonuniyati, muvaffaqiyat garovidir. Ammo o'z milliy tilini unutish milliy tilingni unutish, uni o'zga tillar bilan chog'ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O'zga tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma'rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyotkor va mas'uliyatli bo'lishgan. Xususan, A. Avloniy o'z qayg'usini: "Milliy tilni yo'qatmak millat ruhini yo'qatmak", – degan o'tli fikrlarida ta'sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda. Milliy tilga e'tibor va ehtirom – millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyjanoblikning yorqin ifodasi. O'z milliy tiliga muhabbati yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi?! Til – millatga, jamiyatga, vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo'lish, ajdodlardan meros buyuk ne'mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi. Shu kunlarda, balki o'tgan yillar davomida ham millatsevar tushunchalar, ma'rifat ziyolilarini o'zbek tilining rasmiy talablarini kuchaytirish, milliy martabasini oshirish barcha soha vakillarining adabiy til me'yorlariga amal qilishiga erishish kabi dolzarb muammolar hamisha o'ylantirib, munozaralarga chorlab kelgan. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, milliy-ma'naviy merosimiz ona tilimizga muhabbat va ehtirom, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila qadriyatlar beshigi ekanligini e'tiborga tutgan holda farzand tarbiyasida ona tilini puxta egallash, milliy tilni, qadriyatlarni avaylash, ijtimoiy daxldorlik, vatanparvarlikni shakllantirish usullari tavsiya qilingan, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Taniqli ijodkorimiz Cho'lpon aytganidek: "Til yashasa, millat yashaydi". Darhaqiqat, millat bor ekan, til ham shu millat, shu xalq qalbida, dilida va tilida mangu yashaydi. Zero, rus tarixchisi Shobellov aytganidek: "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi", degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham unutmaslik joizki, insonning ona tiliga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishda, albatta, kitobxonlik madaniyatining o'rni ham juda kattadir. Zotan, turli xildagi badiiy, publisistik va ilmiy xarakterdagi asarlar mutolaasi jarayonida o'quvchi ongida ona tiliga bo'lgan, uning sehr-u joziba-

siga, tarovatiga bo'lgan mehri ham bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. O'z ona tilida xatosiz yozish va gapirish ko'nikmasi shakllanadi. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, ona tilida sof va samimiy gapirish nafaqat madaniyatlilik, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmat va e'tiborning natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, inson tug'iliboq padari buzrukvori hamda validasi-ning mehri, shirin kalomi, allasi-yu sevgisini ona tilida eshitadi, tuyadi. Ilk so'zla-ri, fikr-o'ylari, tevarak-atrof haqidagi mulohazalarini shu tilda bayon etadi. Mana shuning uchun bo'lsa kerak, har bir insonning o'z ona tiliga bo'lgan mehr-u muhabbati bo'lakchadir, u kishining qalbida, yurak to'ridadir. Shu boisdan ham har bir inson ona tilini qadrlamog'i, uning sofligini saqlashga, rivojiga o'z hissa-sini qo'shmog'i lozimdir. Chunki ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy aytganidek, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyoti-dir, milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur". Darhaqiqat, so'zlarni buzib gapirish, o'ransiz chet so'zlarini tilimizga qo'shib gapirish o'zbek tilimiz taraqqiyo-tiga uriladigan boltadir. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, o'zbek tilining rivojlanis-hi, undagi o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hodisalarga bog'liq ravishda ro'y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.
2. X. S. Muhiddinova., Z. I. Salisheva., X. S. Po'latova. O'zbek tili.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
4. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov, Yo'ldosheva O. O'zbek nutq va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 1994.
5. Berdiyev X. X. O'zbek tilining sohada qo'llanishi.